



SUG'URTA VA SOHAGA OID TUSHUNCHALAR, ULARNING TERMINOLOGIK TAVSIFI

Raxmonqulov O'ktam Samatovich

Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti doktoranti(Phd)

rakhmankulovuktam@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10275831>

ARTICLE INFO

Received: 25th November 2023

Accepted: 29th November 2023

Online: 30th November 2023

KEY WORDS

Sug'urta, Qadimgi Mesopotamiya, dengiz sug'urtasi, Xamurappi kodeksi, Ssuda, Koina, Sug'urta konsepsiyasi, Tontinlar, Yong'in idorasi, Anderrayterlar, Lloyd's tashkiloti, Unipolis sug'urta kompaniyasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada sug'urta tushunchasi, uning qadimiy kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari hamda sug'urta sohasida ishlatiladigan sodda va murakkab komponentli terminlarning izohlari haqida ma'lumot berilgan.

Sug'urta – bu asrlar davomida mavjud bo'lgan tushuncha bo'lib, uning ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Sug'urtaning kelib chiqishini Mesopotamiyaning ilk sivilizatsiyalariga "pastki shartnoma" yoki dengiz sug'urtasi deb nomlanuvchi shartnoma turi ko'rinishida kuzatish mumkin.

Qadim zamonlarda savdo iqtisodiyotning muhim qismi bo'lgan va turli mintaqalardan kelgan savdogarlar o'z tovarlarini ko'pincha xavfli dengiz sayohatlari orqali jo'natishgan. Bu savdogarlar o'z sarmoyalarini himoya qilish uchun moliyachilar bilan shartnomalar tuzar edilar, bunda moliyachilar sayohatni moliyalashtirish uchun qarz beradi va buning evaziga savdogar tovar manziliga xavfsiz yetib borsagina qarzni foiz bilan qaytarishga rozi bo'lardi.

Tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini, yog'in va boshqalar), har xil baxtsiz hodisalar ro'y berganda ko'rilgan zararni qoplash va boshqa pul qoplamalari to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Dunyo tarixida sug'urta va shunga o'xshash dastlabki amaliyotlar Bobilda taxminan 4000 yil oldin uchragan. O'sha davrda rivojlangan tijorat markazlari bo'lgan Bobilda karvon savdogarlariga qarz bergan kapitalistlarning karvonlarini o'g'irlash yoki to'lovni to'lash holatlarida savdogarlarning qarzlarini yo'q qilishdi. Keyinchalik bu voqea qirol Xammurapi tomonidan qonuniylashtirildi. Hammurapi kodeksining eng katta xususiyati shundaki, unda qaroqchilar hujum qilgan vaqtda karvonlarning yo'qotishlari hisoblanib boshqa barcha



karvonlardagi mol-mulklar teng taqsimlanishi kerakligini oldindan o'ylamagan. Bu quruqlik transportida xavflarni taqsimlashning birinchi misoli.

Miloddan avvalgi 600-yillarda hindular sug'urta xususiyatlari bilan kredit shartnomalarini tuzishni boshladilar. Oddiy tarkibga ega bo'lgan bunday shartnomalar jamiyatlarda sug'urta terminini rivojlantirish orqali sug'urtalashning birinchi qadamlarini ochib berish nuqtayi nazaridan muhimdir. Ushbu turdagi kredit shartnomalari o'rta asrlarda rivojlanib, dengiz ssudasi (**ssuda** (rus) — moddiy boyliklar garovi hisobiga foiz to'lash va qaytarib berish sharti bilan muayyan muddatga qarzga beriladigan pul yoki moddiy boylik) va yuk tashish sug'urtasining asosini tashkil etdi.

Sug'urta tushunchasi qadimgi Yunoniston va Rimda yanada rivojlangan. Afinada "koina" deb nomlangan savdogarlar guruhlariga kema halokati yoki qaroqchilik tufayli zarar ko'rgan a'zoga yordam berish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan mablag'larni yaratish uchun pullarini birlashtirdilar. Ushbu koinalarni o'zaro sug'urta tashkilotlarining eng qadimgi shakli sifatida ko'rish mumkin.

Keyinchalik sug'urtaga yaqinroq bo'lgan dasturlar, ayniqsa, dengiz savdosi rivojlanadigan sohalarda kuzatilmoqda. Dastlabki dengiz davlatlari - karfagenliklar, rimliklar va yunonlar orasida kema tashigan yukni qarzga berish orqali portga yetib bormaslik xavfini o'z zimmalariga olganlar ham bo'lgan va kema portga xavfsiz qaytib kelganida, ular bergan ssuda miqdori va ular olgan xatar evaziga foizlar jihatidan muhim ulush bo'lgan. Cherkov tomonidan yuqori foiz stavkalari toqat qilinmadi va bir muncha vaqt o'tgach, bu ta'qiqlandi. Ehtimol, ushbu ta'qiq potentsial xavf-xatarlarga qarshi oldindan sug'urta mukofotining shaklini keltirib chiqardi va shuning uchun sug'urta g'oyasi paydo bo'ldi.

Premium sug'urta milodiy 1250 yilda Venetsiya, Florensiya va Genuya shaharlarida paydo bo'lgan. Biroq zamonaviy sug'urta konsepsiyasini 14-asrda Lombard savdogarlarining paydo bo'lishi bilan bog'lash mumkin. Ushbu savdogarlar Italiyaning Lombardiya shahrida dunyodagi birinchi sug'urta bozorini tashkil etishdi. Ular mukofot olish orqali uzoq masofali savdo safarlarida tovarlarni yo'qotishdan himoya qilishni taklif qiladilar. Bu savdogarlarga guruhning har qanday a'zosi tomonidan ko'rilgan yo'qotishlar xarajatlarini qoplash imkonini berdi, bu esa umumiy tavakkalchilik pulini yaratdi.

Iqtisodiy sharoitning o'zgarishi bilan savdo XIV asrdan boshlab juda muhim o'zgarishlarni ko'rsatdi. O'sha paytda sug'urta dengiz savdosida eng rivojlangan Italiyada kerak edi va dengiz sug'urtasi tushunchasi bu yerda birinchi marta paydo bo'ldi. Birinchi sug'urta polisi sifatida qabul qilingan shartnoma 1314 yil 23-oktyabrda tuzilgan va "Santa Klara" kemasining yukini Italiyaning Genuya bandargohidan Majorkaga etkazib berishni tashkil qilgan. Birinchi sug'urta kompaniyasi 1347 yilda, shuningdek, Genuyada tashkil topgan. Sug'urta to'g'risidagi birinchi qonuniy qonun 1424-yilda nashr etilgan "Barselona" farmonidir. Italiyada boshlanganidan so'ng, dengiz sug'urtasi, ayniqsa, XIV asrda Angliyada rivojlangan.

Dengizda boshlangan va rivojlangan sug'urta biznesi keyinchalik hayotni sug'urtalash g'oyasini keltirib chiqardi. Kema va uning yuklarini sug'urtalash kapitan, yo'lovchilar va ekipajni sug'urtalash g'oyasini keltirib chiqardi. XVII asrda italiyalik bankir Tonti tomonidan joriy qilingan "Tontinlar" deb nomlangan tizimda ba'zi odamlar birlashib, ma'lum vaqt oralig'ida ma'lum miqdordagi pulni qo'yishdi va davr oxirida tirik qolganlar ular orasida pulni



bo'lishishdi. Aksariyat odamlar boshqalarga qaraganda uzoqroq umr ko'rishiga ishonganliklari sababli juda mashhur bo'lgan ushbu tizimda, o'lganlar moddiy zarar ko'radi va o'lim xavfi uchun mukofot puli to'lash ko'zda tutilgan. belgilangan vaqt. Va hayotni sug'urtalashga o'tish shu tarzda boshlandi.

XVII asrning ikkinchi yarmi sug'urtaning rivojlanishiga sabab bo'lgan ikkita muhim voqeaga guvoh bo'ldi. Ulardan birinchisi – bu sug'urtalashda statistik usullar va usullarni qo'llash (Ehtimollarni hisoblash), ikkinchisi – 17-yil 2-sentabrda Londonda yuz bergan, to'rt kun davom etgan va 1666 ta uy va 13.000 ta uyning yonib ketishiga sabab bo'lgan katta yong'in. Cherkovlar va yerlarni sug'urtalashning paydo bo'lishiga olib kelgan ushbu voqea jamoatchilikka katta ta'sir ko'rsatdi va bunday ofatlar oqibatlaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish g'oyasini tug'dirdi. Ushbu rivojlanayotgan g'oya asosida 100 yilda "Yong'in idorasi" tashkil etilgandan so'ng, 1667-yilda raqib sheriklik sifatida paydo bo'lgan birinchi "Do'stlik jamiyati" yong'indan sug'urta kompaniyasi ish boshladi.

1684-yilda Lloydning Angliyada asos solishi bilan sug'urta sohasida yangi davr boshlandi. Londondagi Edvard Lloyd ismli kofexona kema egalari, ishbilarmonlar va savdogarlar dengiz savdosi to'g'risida ma'lumot almashadigan joyga aylandi. Bu yerda kema yoki kemaning yuklari uchun kafolatlar bergan odamlar "Anderrayterlar" (ing. underwriter — 1) yangi chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlar (aksiya, obligatsiya va boshqalar)ning muayyan miqdorini sotib olib, keyinchalik uni investorlarga sotish yo'li bilan joylash-tirish majburiyatini oladigan kafil; 2) sug'urta ishida sug'urta kompaniyasi tomonidan xatarning barcha turlarini sug'urtalashga vakil qilingan shaxs. Anderrayter sug'urta portfelining shakllanishiga javob beradi) sifatida hujjatlarni rasmiylashtirish orqali ishlay boshladilar va yana bu odamlar Edvard Lloyd vafotidan keyin o'zaro Lloyd's nomli jamoat tashkil etishdi. Lloyd's tashkiloti 1688-yilda Buyuk Britaniya parlamenti tomonidan qabul qilingan qonun bilan Ittifoqga kiritilgan. Lloyd's birinchi yillarida faqat dengiz sug'urtasi sohasida faoliyat yuritgan bo'lsa, keyinchalik yerlarni sug'urtalash sohasiga o'tdi va bugungi kunda u barcha turdagi sug'urtalarni amalga oshiradigan muassasaga aylandi. Lloyd's - bu dunyoda noyob bo'lgan mutlaqo noyob sug'urta kompaniyasi. Lloyd's sug'urta kompaniyasi emas, balki Anderrayterlar hamjamiyati va uyushmasi, shuningdek, jahon transport razvedkasining markazi. Lloyd'sning eng o'ziga xos xususiyati shundaki, Lloyd's a'zolari o'zlarining barcha mol-mulklari bilan javobgar bo'lishadi va hech qachon sug'urtalangan shaxs bilan bevosita aloqada bo'lmaydilar va o'zaro munosabatlar vositachilar yoki "Brokerlar" deb nomlangan kompaniyalar bilan o'rnatiladi. Brokerlar Lloyd's bilan ishlash va mijozning sug'urtasi va tovon puli bilan shug'ullanish uchun bu yerda ro'yxatdan o'tishadi.

Dengiz sug'urtasi bilan bog'liq bo'lgan individual baxtsiz hodisalar, yerni sug'urtalashda va poezdlarda sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar baxtsiz hodisalar sug'urtasida zamonaviy sug'urtaning paydo bo'lishiga olib kelgan bo'lsa, sanoatning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan katta texnik zarar muhandislik sug'urtasining rivojlanishiga olib keldi. Bu tizim tavakkalchilikni savdogardan moliyachiga samarali o'tkazib, sug'urta shaklini yaratdi.

XX asrning boshlarida sug'urta kompaniyalari har qanday sug'urta ehtiyojlarini qondirish uchun o'z tashkilotlarini yakunlagan tashkilotlar sifatida samarali xizmat ko'rsatadigan darajaga erishdilar.



Shunday qilib, hozirgi kunga kelib sug'urta tashkilotlari o'tmishdagi hamkasblarining ishlarini davom ettirib yangi izlanishlar olib bordilar va natijada yangi sug'urta turlarini taqdim etdilar. Hozirda hayotimizni, ish faoliyatimizni, turmush tarzimizni yengillashtirayotgan, havf-xatarlardan himoyalashga qaratilgan Unipolis sug'urta kompaniyasining tadbirkorlar uchun ishlab chiqilgan bir nechta sug'urta tushunchalari va ularning turlarini ifodalovchi terminlar tavsifiga to'xtalamiz.

Ishlab chiqarish to'xtatilganda yo'qotish xavfini sug'urtalash. Bu termin asosidagi tushuncha mazmunini quyidagilar tashkil qiladi: kompaniyaning foydasi ishlab chiqarish jarayoniga bog'liq va bunday muhim bosqichni xavf ostiga qo'yish to'g'ri qaror emasligi ushbu sug'urta turini taqozo qilgan. Shunga ko'ra, Unipolis ishlab chiqarishning rejalashtirilmagan to'xtashi tufayli yo'qotilgan foydani qoplash bo'yicha o'z xizmatlarini taklif qiladi.

Shartnoma majburiyatlari bajarilmagan taqdirda moliyaviy xavflarni sug'urtalash. Ushbu murakkab tuzilishli termin ham sug'urta sohasi doirasidagi muhim tushunchalardan biri sanaladi. Termin ma'nosini "moliyaviy majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik oqibatida yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotishlarni himoya qiluvchi sug'urtalash" tashkil qiladi.

Ekspeditorlar javobgarligini sug'urtalash. Bu terminimizda esa kompaniya ekspeditorlik(mahsulotni do'kon yoki shunga o'xshash savdo shahobchalariga yetqazish) xizmatlarini taklif qiladi ammo kutilmagan holatlarni sug'urtalash uchun Unipolis sug'urta kompaniyasi bilan birgalikda ekspeditorlik faoliyatini xavf-xatarlardan himoya qilish ya'ni yetqazilgan mahsulotni sifatida o'zgarish sodir bo'lgan holatda ham ekspeditorni javobgarlikdan saqlashni sug'urtalaydi.

Turizm sohasidagi faoliyat qatnashchilarining javobgarligini sug'urtalash. Turizm sohasidagi ushbu murakkab komponentli terminda turizm kompaniyalarining xizmatlarini sug'urtalash nazarda tutilgan. Bunda turizm sohasida kompaniya tomonidan berilgan takliflar taqdim etilib, ish faoliyatida kutilmagan xatolarga yo'l qo'yishning oqibatida kelib chiqadigan noxush holatlarni oldini olish uchun Unipolis sug'urta kompaniyasi bilan birgalikda xavflardan xalos bo'lishni nazarda tutgan.

Soliq konsultantlarining professional javobgarligini sug'urtalash. Bu soliq sohasidagi murakkab komponentli terminning mazmunida Soliq konsultantining xizmat vazifasidagi kelib chiqadigan muammolarni sug'urtalash orqali konsultantning faoliyatini kafolatlaydi. Konsultatsiyasi e'tiborni talab qiladi va xatolarga toqat qilmaydi. Unipolis kompaniyasi bilan birgalikda professional xato qilish xavfidan sug'urtalash mumkin bo'ladi.

Sud boshqaruvchilarining professional javobgarligini sug'urtalash. Ushbu murakkab komponentli terminda Sud boshqaruvchisining xizmatlarini taqdim etib, o'z faoliyatini amalga oshirayotganda xatolarga yo'l qo'ymaslikni, mavjud xatolar kelib chiqqan holatda esa, Unipolis sug'urta kompaniyasi xodimga nisbatan yordam beradi va sug'urda hodisasi yuzaga kelganda zararni qoplab beradi.

Yuristlarning professional javobgarligini sug'urtalash. Bu terminimizda yuristlarning javobgarligi nazarda tutilgan. Xato qilish ehtimoli har qanday kasbda – yuristlarda ham mavjud. O'z obro'yini saqlab qolishni va xato qilish xataridan xalos bo'lishni nafaqat yuristlar balki barcha soha vakillari xohlaydi. Unipolis sug'urta kompaniyasi yuristlarning mijozlar oldidagi professional javobgarligini sug'urta qiladi.



Baholovchilarning professional javobgarligini sug'urtalash. Bu terminning izohi sifatida baholovchi (оценщик) sifatida xizmat ko'rsatib, kelgusida ro'y berishi mumkin bo'lgan xatolar yuzasidan xizmat faoliyatini sug'urtalashda Unipolis kompaniyasi bilan birga mijozlar oldidagi javobgarligini sug'urta qiladi. Xodimga sug'urta hodisasi yuzaga kelganda yordam beradi va mijozga yetkazilgan zararni qoplaydi.

Notariyslarning professional javobgarligini sug'urtalash. Bu murakkab komponentli terminda Notarius tashkilotiga katta mas'uliyat yuklatilgan va bu yo'nalishdagi faoliyatning har bir vakili xavf ostida bo'lishi mumkin bo'ladi. Unipolis sug'urta kompaniyasi «Notariyslarning professional javobgarligini sug'urtalash» deb nomlangan sug'urta taklifi orqali notarius xodimining tasodifiy professional xato natijasida yetkazilgan zararlarni qoplab beradi.

Auditorlarning professional javobgarligini sug'urtalash. Ushbu terminda xodimning auditorlik obro'yini xavf ostiga qo'ymaslik uchun va mijozlar oldidagi o'zining professional javobgarligini sug'urta qiladi. Unipolis kompaniyasi auditorlik xizmatlarini ko'rsatishda professional xatoga yo'l qo'ymasligingizga va hattoki xatoga yo'l qo'yilganda ham xizmat faoliyati sug'urtalanganligi hisobiga muammoni bartaraf etishda yordam beradi.

Elektron va qimmatbaho texnikani sug'urtalash. Ushbu terminda Ishlab chiqarishda qimmatbaho elektron texnikadan foydalanilishi, va bu elektron texnikalarning but holatda saqlanishi, shikastlangan holatda uni ta'mirlash uchun yoki o'rin almashtirish uchun sarflanadigan xarajatlarni qoplab berish bo'yicha takliflar izohlanadi. Unipolis kompaniyasi mol-mulkga ziyon yetishi mumkin bo'lgan kutilmagan hodisalardan sug'urtalashga yordam beradi.

Axborot xatarlaridan sug'urtalanish. Ushbu uch komponentli murakkab terminda Axborot maydoni — Bu axborot uzatish, almashish va saqlash uchun eng ommabop joy ekanligi va shu bilan birga har bir axborot uchun duch kelishi mumkin bo'lgan keng doiradagi xavf-xatarlar mavjud bo'ladi. Unipolis kompaniyasi bilan birgalikda raqamli mulkni sug'urta qilish haqida axborot beriladi.

Ko'rgazmalar, sport va madaniy-tomosha tadbirlar tashkilotchilarini sug'urta qilish. Bu terminda Ko'rgazmalar va konsertlarni tashkil qilishga ixtisoslashgan bo'lib, ko'rgazma va tadbirlarda foydalaniladigan ma'daniy meroslar, yoki boshqa tadbir uchun ishlatiladigan mahsulotlarning shikastlanishidan himoya qilinadigan sug'urta turi hisoblanadi. Unipolis kompaniyasi tadbir mulklarini but saqlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi va tashrif buyuruvchilar oldida tadbir tashkilotchilarining javobgarligini sug'urta qiladi.

Chet elga safarni bekor qilish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urtalash. Bu murakkab komponentli terminimizning mazmuni shuni ko'rsatadiki sayohatga chiqishni rejalashtirganda va sayohat vaqtida kutilmagan hodisalardan: vizani rad etish, kutilmagan kasallik yoki boshqa sug'urta hodisasi tufayli sayohatingiz bekor qilinadigan holatlarda sayohat uchun belgilangan to'lov badallarini qoplab berilishi nazarda tutilgan.

Yuqorida Unipolis sug'urta kompaniyasining tadbirkorlar uchun berayotgan takliflari bilan tanishib chiqdik. Shu tartibda sog'liqni, mulklarni, tadbirkorlik faoliyatini sug'urtalash mumkinligini tushunib sug'urtaning hayotimizdagi o'rnini aniqlab olishimiz mumkin bo'ladi.

Vaqt o'tishi bilan sug'urta hayot, sog'liq va mulk kabi keng ko'lamlı xavflarni qoplash uchun rivojlandi. U zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylandi, jismoniy shaxslar va



korxonalarini kutilmagan hodisalardan moliyaviy himoya bilan ta'minlaydi. Yuqorida qayd qilingan hodisa va jarayonlar sug'urta va ushbu sohaning asosiy masalasi, tushunchalarini ifodalovchi termin va atamalar tizimining ham shakllanish uchun muhim omil sifatida xizmat qilganligi tabiiy. Ayni holat esa til leksik tizimining maxsus leksikasi tarkibida yangi bir soha terminologiyasining shakllanishi va taraqqiyotini tizimiy tadqiq qilish zaruratini ham belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda, uzoq tarix va muhim ahamiyatga ega bo'lgan sug'urta sohasining shakllanishi va taraqqiyoti uning terminologik tizimi tadqiqida alohida o'rin egallaydi. Past darajadagi shartnomalardan tortib to koina va sug'urta bozorlarini tashkil etishgach, bu konsepsiya jismoniy shaxslar va korxonalariga hayotning noaniqliklarida harakat qilishlari uchun zarur bo'lgan xotirjamlikni ta'minlash uchun doimiy ravishda rivojlanib borganligi uning zamonaviy tushunchalar bilan boyib borishidan ham dalolat beradi. Soha tushunchalari ifodalovchisi bo'lgan maxsus so'zlar – termin va atamalarning iqtisodiy-lingvistik aspektida tizimiy tadqiq qilinishi mamlakatimiz iqtisodiy-lisoniy hayoti uchun ham muhim natija va xulosalarni taqdim qiladi. Navbatdagi tadqiqiy vazifalarimizdan biri ana shu soha terminologiyasini soha va tilshunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy o'rganishdir.

References:

1. Qo'ldoshev Q.M, Baratova D.A O'zaro sug'urtaning paydo bo'lishi va rivojlanishi, O'zbekistonda uni joriy etishning afzalliklari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali №6 noyabr-dekabr 2017.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli 1-5-jildlar – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti 2006-2008.
3. X.M.Shennayev, I.K.Ochilov, S.E.Shirinov, I.G`.Kenjayev "Sug'urta ishi" Toshkent-2014;
4. <http://www.wikipedia.org>
5. <http://www.unipolis.uz>